

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARI VATANIMIZ TARIXIGA OID MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA

Sunnat Shavkat o‘g‘li Nasilloev

Buxoro Davlat Universiteti o‘qituvchisi

Keywords: *Oriental culture, literature, poetry, Aksi Fortress, “Boburiya”, “Babur's story”, India, Mongolia, villages and settlements, China, Khorasan, Banoras, Delhi, Ghazni, Kabul, Khojand, Karshi, Bukhara, Bukhara Andijon*

Kalit so‘zlar: *Sharq madaniyati, adabiyot, she‘riyat, Aysi qo‘rg‘oni, “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, Hindiston, Mo‘g‘uliston, qishloq va kentlar, Xitoy, Xuroson, Banoras, Dehli, G‘azna, Qobul, Xo‘jand, Qarshi, Buxoro, Andijon.*

Ключевые слова: *восточная культура, литература, поэзия, крепость Акси, «Бобурия», «История Бабур», Индия, Монголия, села и поселения, Китай, Хорасан, Банорас, Дели, Газни, Кабул, Ходжент, Карши, Бухара, Бухара Андижан.*

Annotatsiya. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos jilo bag‘ishlagan shoir, balki mohir jangchi va sarkarda hamdir. Bobur- dilbar shaxs^v. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. Uning o‘zbek tilida yozgan “Boburnoma” asari butun jahonning nigohidan joy olgan va muallifning o‘zi esa tarixnafis olimlar qatoridan o‘rin egallagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga kelgan. Yoshligidan adabiyot, she‘riyat hamda san‘atning nafis ser jilosiga oshno bo‘lganligi bois saroydagi ustozlaridan ilm fanni chuqur va mukammal o‘rganishga kirishgan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Umarshayx Mirzoning o‘z saltanatining hududlarini kengaytirish maqsadida qilgan harakatlaridan tahlikaga tushgan akasi Sulton Ahmad Mirzo Toshkent hukmdori Yunusxon bilan o‘zaro ittifoq tuzib 1494-yili Andijonga qo‘shin tortadilar. Biroq shu yilning 9-iyunida shunday tahlikali paytda Umarshayx Mirzo Axxi shahridagi qarorgohida elchi kaptarlarni uchirish vaqtida kaptarxona bilan birga jarga qulab halok bo‘ladi. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida otasining o‘limi haqida quyidagicha ma‘lumot beradi: “Bu asnoda g‘arib voqea dast berdi, mazkur bo‘lib edikim, Axxi qo‘rg‘oni baland jar ustida voqe bo‘lubtur, imoratlar jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda dushanba kuni ramazon oyining to‘rtida Umarshayx Mirzo jadin kabutar va kabutarxona bila uchub shunqor bo‘ldi. O‘ttuz to‘qquz yashar erdi”^v. Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur “Boburnoma” asari turkiy tilda yaratilgan badiiy, ilmiy nasr javohiri sifatida bugungi kunda dunyodagi yuzlab yirik fan tadqiqotchilari diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. “Boburnoma”ning XVI asrdayoq adabiyotchilar, tarixchilar, umuman, ilm ahli e‘tiboriga sazovor bo‘lgani ma‘lum. Ushbu qomusiy asar hozirgacha dunyoning o‘ttizga yaqin tiliga tarjima bo‘lgan. Yaratilgan davrida forsiyga, XVII asrda golland tiliga, keyinchalik ingliz, fransuz, nemis, ispan, xitoy, hind, yapon, turk, rus, qozoq va boshqa tillarga o‘girilgan. Boburnoma- jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik, o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Bu asar “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma‘lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoye”va “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqlikdir. “Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movaraunnahr (1494-1504), Afg‘oniston (1504-1526) va Hindiston (1526-1529)dagi hukmronlik davriga bo‘linadi. “Boburnoma”da joy nomlari toponimikasi haqida so‘z yuritar ekanmiz, asarda uchraydigan toponimlar

ular ifodalagan obyektlarning turiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linishini ta‘kidlab o‘tamiz. Bularning bir qismini aholi maskanlari nomlari – oykonimlar tashkil etadi.

Oykonimlar:

1) mamlakatlar nomlari — Hindiston, Mo‘g‘uliston, Afg‘oniston, Arabiston, Iroq, Xitoy, Xuroson, Ozarbayjon, Misr;

2) shaharlar nomlari — Banoras, Dehli, G‘azna, Qobul, Mashhad, Urganch, Kesh, Sayram, Xo‘jand, Qarshi, Buxoro, Toshkand, Andijon,;

3) qishloq va kentlar nomlari — Yorkand, Navkand, Muhammad og‘a kenti, Ho‘dak kenti, Beshkent, Qulba kenti, Archakent, Dehi G‘ulomon, Yettikent, Dehi Afg‘on;

4) qal‘a va qo‘rg‘onlar nomlari: Toshqo‘rg‘on, Qal‘ai Dabusi, Qal‘ai Zafar, Olaqo‘rg‘on, Asfidak qo‘rg‘oni;

5) rabotlar nomlari — Surhrabot, Raboti Ro‘zak, Raboti Sarhang, Raboti Zavraq kabilarni o‘z tarkibiga birlashtiradi. —Boburnoma da qayd etilgan toponimlar tizimida yer sathidan balandda turuvchi obyektlarni atoqli otlar-ronimlar alohida o‘rinni egallaydi.

Temuriy shaxzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining yuksak mavqe‘ga ega bo‘lgan “Boburnoma” asarida Kopgina tarixiy shaharlar ta‘rifi ham keltirilgan. “Samarqand shahri – ajoyib orasta bir shahardir. Bu shaharning bir hususiyati borki, bunaqasi kamdan- kam shaharda bo‘ladi, ya‘ni har hunarmandning alohida bozori bor, bir-biriga aralashgan emas, bu qiziq rasmdir. Yaxshi novvoyliklari va oshpazliklari bordir. Olamda yaxshi qog‘oz Samarqanddan chiqadi. Qog‘oz juvozlariga suv butkul Konigildan keladi. Konigil- Siyohob yoqasidadirki, bu Qorasuvni Obirahmat ham deydilar”^v.

“Boburnoma”da, Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand taxtiga o‘tirganligi haqida shunday yozilgan : “Samaqand taxtiga o‘lturg‘och, Samarqand beklarini burungudek o‘q rrioyat va inoyat qildim. Bizning bila bo‘lg‘on beklarni ham faroxo‘ri hollariga yarasha tarbiyat va shafkat qildim. Sulton Ahmad Tanbalning borasig‘a rioyat ko‘prak voqe bo‘ldi. Ichki beklar chargasiga edi, ulug‘ beklar

chargasida rioyat qildim. Samarqandikim, yetti oy muhozara qilib, tashvishlar bila olduk, avval kelganda cherik eliga o‘lja- mo‘ljadek nima tushub edi. Bir Samarqanddin o‘zga jami viloyatlar mahga kirib edi, yo Sulton Ali mirzog‘a bu kirgan viloyatlarni topib bo‘lmas edi. Muncha talon-taroj tortg‘on viloyatlardin nima olmaq xud nechuk muyassar bo‘lg‘ay edi”. Shuningdek muallif asarda Andijon shahri haqidagi ma‘lumotlarni ham keltirib o‘tgan. “Andijondurkim, vasatta voqe bo‘lubdur, Farg‘ona viloyatining poytaxtidir. Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo‘lmas”. Asar bobomizning kundalik daftari hisoblangani uchun u turli mubolag‘alardan xoli bo‘lgan va undagi har bir narsa boricha aks ettirilgan. “Boburnoma” da qo‘llangan sodda va ravon uslub Pirimqul Qodirov qalamiga mansub bo‘lgan, Boburning hayoti yoritilgan “Yulduzli tunlar” asarida Xondamir nutqi bilan quyidagicha keltiriladi: “Bobur qalamga olgan voqealar juda murakkab bo‘lsa-da, muallif ularni og‘zaki hikoyaga yaqin bir tarzda xiyla oddiy uslubda yozgan edi”. Voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agrabacha bo‘lgan qamrovga ega. Ya‘ni unda O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

Boburnomada go‘zal va maftunkor Farg‘ona vodiysi mahorat bilan tasvirlangan. “Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur... Sharqi Qashqar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lar, shimolida agarchi burun shaharlar bor ekandur... Muhtasar viloyatdur, oshliq va mevasi farovon”. Darhaqiqat, O‘rta osiyo javohiri deb nom olgan Farg‘ona vodiysi Sirdaryo yuqori oqimida joylashgan yirik dehqonchilik va sanoat rayonlaridan biri hisoblanadi. Vodiy jug‘rofiy jihatdan tog‘lar orasida joylashgan havzadir. Shimol, shimoli-g‘arb tomonlardan Qurama, Chotqol. Janubdan Turkiston, Oloy tog‘ tizmalari o‘rab turadi. Garbda esa havza torayib Mirzacho‘l bilan tutashib ketadi. Vodiy ma‘muriy jihatdan uch jumhuriyat: O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston o‘rtasida bo‘lingan. Asosan o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar yashaydi. Farg‘ona mulkiga kirgan 8 ta shahar: Andijon, Axsi, Koson,

O‘sh, Konibodom, Isfara, Marg‘ilon, Xo‘jand Bobur Miro ixtiyoriga o‘tgan. Farg‘ona hukmdorining yozgi qarorgohi bo‘lmish Axxi shahri (Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumaniga qarashli hozirgi Axxi vayronalari) Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida edi. Farg‘onaning poytaxti Andijon o‘sha paytda vodiyning asosiy shahri bo‘lib, mustahkam qal‘a devorlari bilan o‘ralgan edi. Bobur tarafida shaharning uchta darvozasi bo‘lib, asosiy darvozasi janubdagi hokan darvozasi edi.

Xulosa qilib aytdigan bo‘lsak, Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur Boburnoma asari o‘lkamiz va undan tashqaridagi hududlar, joy nomlarini o‘rganishda boy material beruvchi muhim asar hisoblanadi. Unda keltirilgan toponimlarning turlari, ma‘nosi, kelib chiqishiga tarixiy fikr-mulohazalar, yana shunisi ahamiyatga ega. Qisqacha qilib aytdigan bo‘lsak “Boburnoma” har tomonlama mukammal asarlar sirasidandir. Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ko‘plab yozuvchilarimiz asarlar yaratgan. H.Sultonovning “Sadoqat sohibi”, P.Mimnisi Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Q.Kenjaning “Hind song‘a nomli asarlar”, Z.Muhtidimovning “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli asarlarida Bobur hayoti yorqin aks ettirilgan.

“NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR”
 842
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARI HAQIDA FIKR-MULOHAZALAR YANA SHUNISI Ahamiyatga ega.
 Sunnat Shavkat o‘g‘li Nasilloev
 Bukhoro Davlat Universiteti o‘qituvchisi
 Keywords: Oriental culture, literature, poetry, Aksii Fortress, “Boburiya”, “Babur’s story”, India, Mongolia, villages and settlements, China, Khorasan, Banoras, Delhi, Ghazni, Kabul, Khojand, Karshi, Bukhara, Andijon
 Kalit so‘zlar: Sharq madaniyati, adabiyot, she‘riyat, Axxi qo‘rg‘oni, Boburnoma, “Sadoqat sohibi”, P.Mimnisi Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Q.Kenjaning “Hind song‘a nomli asarlar”, Z.Muhtidimovning “Zahiriddin Muhammad Bobur” nomli asarlarida
 Ключевые слова: восточная культура, литература, поэзия, крепость Акси, «Бобурия», «История Бабура», Индия, Монголия, села и поселения, Китай, Хорасан, Банорас, Дели, Газни, Кабул, Ходжент, Карши, Бухара, Андижан
ADABIYOTI AR RO‘YXATI
 Annotatsiya. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos jilo bag‘ishlagan shoir, balki mohir jangchi va sarkarda hamdir. Bobur- dilbar shaxsv. Uyg‘onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. Uning o‘zbek tilida yozgan “Boburnoma” asari butun jahonning nigohidan joy olgan va muallifning o‘zi esa tarixnafis olimlar qatoridan o‘rin egallagan desak muhelaqaja bo‘lmaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga kelgan. Yoshligidan adabiyot, she‘riyat hamda san‘atning nafis ser jilosiga oshno bo‘lganligi bois saroydagi ustozlaridan ilm fanni chuqur va mukammal o‘rganishga

1. Zahiriddin Muhammad Bobur " Boburnoma " 1989 - yil
2. Aziz Qayumov: “Zahiriddin Muhammad Bobur”4-bet. -T.: “FAN”n-2008y 2.
3. Sayfiddin Jalilov: “Bobur haqida o`ylar” 7-8bet-T.: “ShARQ”n – 2006 y
4. I.M.Mo‘minov “Samarqand Tarixi 1-qism”-T.:“FAN” nashriyoti,1971 2.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi-T.: “SHARQ” n,2017
6. Hasan Qudratullayev: “Bobur Armoni”-T.: “SHARQ”n-2009y 2) Bobur
7. Xalqaro Fondi:”Zahiriddin Muhammad Bobur”-T.:”SHARQ”n-2008y